



UDK: 811.161.3

O‘ZBEK TILI DIALEKTAL AREALI VA NAMANGAN VILOYATI SHEVALARI

Umirzaqov Ahrorbek

E-mail: umurzoqovahr50@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbek tili dialektal areali va Namangan viloyati shevalarining lingvistik xususiyatlari o‘rganiladi. Maqolada O‘zbek tilining hududiy dialektlarga bo‘linishi, ularning talaffuz, leksika va grammatik xususiyatlari tahlil qilinadi. Xususan, Namangan viloyatidagi shevalar o‘zbek tilining boshqa mintaqalardagi shevalaridan farq qiluvchi fonetik va leksik o‘ziga xosliklari bilan ajralib turadi. Ushbu hudud shevalarining o‘rganilishi nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy nuqtai nazardan ham muhim ahamiyatga ega. Maqola tilshunoslarga O‘zbek tilining dialektal boyligini yanada chuqurroq anglashda yordam beradi hamda mintaqaviy madaniyatning til orqali ifodalanishini yoritadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbek tili, dialektal areal, sheva, Namangan viloyati, fonetika, leksika, lingvistika, madaniyat, tilshunoslik.

Аннотация. В данной статье рассматриваются лингвистические особенности диалектального ареала узбекского языка и говоров Наманганской области. Анализируется территориальное деление узбекского языка на диалекты, их фонетические, лексические и грамматические особенности. В частности, говоры Наманганской области выделяются своими фонетическими и лексическими характеристиками, отличающимися от говоров других регионов узбекского языка. Изучение говоров данного региона имеет важное значение не только с лингвистической, но и с этнографической и культурной точек зрения. Статья



помогает лингвистам глубже понять диалектное богатство узбекского языка и освещает выражение региональной культуры через язык.

Ключевые слова: узбекский язык, диалектальный ареал, говор, Наманганская область, фонетика, лексика, лингвистика, культура, языкознание.

Annotation. This article explores the linguistic features of the dialectal area of the Uzbek language and the dialects of Namangan region. It analyzes the regional division of the Uzbek language into dialects, focusing on their phonetic, lexical, and grammatical characteristics. In particular, the dialects of Namangan region stand out with their unique phonetic and lexical features that distinguish them from dialects in other parts of the Uzbek-speaking area. The study of these regional dialects is important not only from a linguistic perspective but also from ethnographic and cultural viewpoints. The article helps linguists gain a deeper understanding of the dialectal richness of the Uzbek language and highlights the expression of regional culture through language.

Keywords: Uzbek language, dialectal area, dialect, Namangan region, phonetics, lexicon, linguistics, culture, language studies.

Kirish. O‘zbek tili Markaziy Osiyoda, xususan O‘zbekiston, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston va Afg‘onistonning ayrim hududlarida keng so‘zlashiladigan turkiy tillar oilasiga mansub til hisoblanadi. Uning ko‘p ming yillik tarixi va boy madaniy merosi mavjud bo‘lib, O‘zbek tili mintaqalararo aloqalar va ko‘chmanchi xalqlarning ta’siri ostida rivojlangan. Shuning uchun ham o‘zbek tilida hududiy tafovutlar, ya’ni dialekt va shevalar mavjud bo‘lib, ular tilning turli mintaqalardagi og‘zaki shakllarini aks ettiradi. Dialektal areal tilning geografik hududlarda qanday tarqalganini, uning talaffuz, leksika va grammatik jihatdan qanday farqlanishini aniqlashga yordam beradi. O‘zbek tilining dialektal areali ko‘plab tadqiqotlar mavzusi bo‘lib, tilshunoslar uni asosan uchta asosiy



hududiy guruhga ajratadilar: shimoliy, janubiy va markaziy dialektlar. Har bir hududda o'ziga xos shevalar shakllangan bo'lib, ular o'zbek xalqining madaniy va tarixiy rivojlanishi bilan chambarchas bog'liqdir.

Namangan viloyati esa o'zining geografik joylashuvi va tarixiy ahamiyati bilan O'zbekistonning sharqiy qismida alohida o'rin tutadi. Bu viloyat shevalari o'zbek tilining dialektal tahlilida muhim ob'yekt bo'lib, ular nafaqat lingvistik, balki etnografik va madaniy nuqtai nazardan ham qiziqarli hisoblanadi. Namangan shevalari o'zining fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan mamlakatning boshqa hududlaridagi shevalardan ajralib turadi va bu shevalar orqali viloyat aholisi tilning o'ziga xosligini saqlab kelmoqda. Ushbu maqolada O'zbek tili dialektal areali haqida umumiy ma'lumot berilib, xususan Namangan viloyatidagi shevalarning asosiy xususiyatlari batafsil tahlil qilinadi. Shuningdek, shevalarning tilimiz madaniy merosidagi o'rni va ahamiyati ham ko'rib chiqiladi.

Hozirgi kunda jamiyatning taraqqiy etishi nafaqat iqtisodiy, siyosiy va ijtimoiy sohada, balki inson ma'naviyatida muhim o'rin tutadigan til madaniyatida yuz bermoqda. Chunki ma'naviy madaniyatimizning rivojlanishi esa ko'p jihatdan tilning taraqqiy etishiga bog'liq. Ma'lumki, o'zbek xalqi ham o'z tili, urf-odati, adabiyoti, moddiy va ma'naviy boyliklariga ega bo'lgan eng qadimiy etnoslardan biridir. U o'zining ko'p asrlik tarixiy hayoti davomida o'z madaniyatini, adabiyotini va tilini yaatdi. O'zbek tili asrlar osha shakllanib, taraqqiy etib keldi. Ajdodlarimiz zakovati tufayli tilimizning noyob javohirlardan iborat so'z xazinasiga yangi-yangi – so'zlar qo'shilib, uning nafosati va imkoniyatlarini beqiyos darajada oshirdi. O'zbek tilining bunday boy va betakror o'ziga xosliklarini, mo'jizalar yaata oladigan, qudratini oshiradigan lisoniy manbalarini aniqlash va ularni avaylab asrashimiz lozim.

Mamlakatimizda «Davlat tili haqida» gi qonunning qabul qilinishi o'zbek tilini davlat tili sifatida yanada rivojlantirish, uning asrlar mobaynida saqlanib kelayotgan so'z



boyliklarini yig'ish, ularni o'rganishda muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Shevalarni o'rganish – xalq tarixi, etnik-madaniy hayotini tadqiq etish uchun qimmatli materiallar beradi. Sababi jonli xalq shevalari adabiy tilning yozma yodgorliklariga nisbatan qadimiy manbadir. Xalq shevalarini o'z vaqtida va atroflicha o'rganmas ekanmiz, davr o'tishi bilan undagi noyob so'zlar iste'moldan chiqadi. Shuning uchun xalq shevalarini o'rganish o'zbek tilshunosligida dolzarb masalalardan biri hisoblanadi.

Har bir tilning o'rganilish darajasi, uning ichki qonuniyatlarini bilish, tilning shevalarini tavsiflash, ularda saqlanib kelayotgan til boyliklarini aniqlash, shevalar bilan adabiy til orasidagi aloqalarni o'rganish bilan uzviy bog'liqdir.

Mustaqillik sharofati bilan mamlakatimizda o'z tilimizga bo'lgan yangicha munosabatlar yuzaga keldi. Istiqlool tufayli o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilishi ona tiliga bo'lgan hurmat va ehtirom ramzi bo'ldi. Bugungi kunda o'zbek tili o'zining cheksiz boyliklarga ega ekanligini namoyon etmoqda. Bejiz emaski, xalqimiz asrlar davomida o'zining ona tiliga muhabbat bilan qaragan, uni e'zozlab ardoqlagan. Chunki, «ona tili shu qadar sohir va ilohiy qudratki, uning siyratida yashiringan sinoatlarni batamom inkishof etmoq uchun inson aqlining sinchilik salohiyati ojizlik qiladi». Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'zbek adabiy tili boy manba bo'lgan xalq tilidan oziqlanadi, uning imkoniyatlari bilan boyib, uning zaminida taraqqiy etib boradi. Chunki, hozirgi o'zbek lahja tarixi yozma yodgorliklari tilida saqlanmagan va bizgacha etib kelmagan ko'pgina so'z hamda lug'aviy shakllarni o'zida saqlagan, bular til uchun juda nodir meros bo'lib xizmat qiladi. Qayd etilgan xususiyatlar ko'proq tilning leksikasida o'z ifodasini topadi. Shuning uchun ham shevalar leksikasini chuqurroq o'rganish o'zbek adabiy tili lug'at tarkibining boyishi uchun qimmatli material beradi. Mana shu sabablar bizni Namangan shahri shevasining fonetik-fonologik xususiyatlarini o'rganishga undadi.

Ma'lumki, umumxalq tilini tadqiq qilish shu tilda so'zlashuvchi etnos tarixini o'rganishga ko'p jihatdan bog'liq. Chunki tildagi o'zgarish va rivojlanishlar xalqning



turmush tarzi, urf-odatlar, ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga aloqador bo‘ladi. Shuning uchun ham tadqiq etilayotgan shevalar tarqalgan hududning tarixiga bir nazar tashlash joiz deb bilamiz. Chunki, Namangan shahri xonliklar davridagi eng oxirgi shahar – hudud sifatida yangi bo‘lsa-da, aslida ushbu hudud o‘zining qadimiy tarixiy yodgorliklariga, boy madaniy merosiga ega bo‘lgan maskanlardan bittasidir. Afsuski, bunday yodgorliklarning hammasi ham bizgacha etib kelmagan. Quyiroqda shaharning tarixiga nazar tashlaymiz.

Adabiyotlar tahlili. Dunyo tilshunosligida areal tilshunoslik ko‘p mundarijali soha bo‘lib shakllandi. Chunki arealogiya italyan neolingvistlari (M.Bartoli, Dj. Bonfante, V.Pizani, V.M.Jirmunskiy, V.N.Golovin va b.), jahon lingvo-geograflari (K. de Monbre, Jon Jileron, D.Mone, G.Venker, F. Vrede, K.Yaberg, Y.Yud, P. Meer, V.M.Jirmunskiy, S.I.Bromley, D.I.Edelman, B.A.Serebrennikov, N.Z.Gadjieva, R.YA.Udler va b.) hamda tillar ittifoqi yo‘nalishi vakili bo‘lgan (M. Emeneau, V. Vinter, I. Balazs, *M.J.Bartoli, Dj. Viddasi*, Y.S.Maslov va b.) tilshunoslarning amalga oshirgan tadqiqotlarini o‘zida mujassamlashtirdi. Tadqiqotlar negizida areal lingvistik kontseptsiyalarning tadrijiy taraqqiyotini analiz va sintezlash natijasida dialektlarni umumiy tilshunoslikning bir aspekti sifatida o‘rganish maqsadga muvofiq ekanligi isbotlandi. Dialektlarni arealogik tamoyillar va lingvistik tadqiqot metodlari asosida o‘rganish muhim muammo sifatida qo‘yildi.

Jahon tilshunosligining arealogiya sohasi vakillari o‘z ilmiy qarashlarida millat tilini dialektologik manba – materiallarni lingvistik geografiya, areal lingvistika tamoyillari asosida bir butun, yaxlit – umumiy tarzda o‘rganish ko‘proq samara berishini isbotladilar. Ularning ilmiy qarashlari, asarlari u yoki bu til hodisasining hududiy tarqalishini ko‘rsatuvchi lingvistik xaritaga tushirilgan belgilar – izoglassa tushunchasining mohiyatini ochib berdi.

XX asrning 50-60-yillardan boshlab turkiyshunoslar ham lingvistik geografiyaga, lingvistik xaritalar tuzish muammolariga diqqatini jalb etdilar. Bu muammoga



bagʻishlangan N.A.Baskakov, M.M.Shiraliyev, N.Z.Gad-jieva, E.V.Sevortyan, Sh.Shoabdurahmonov, A.Shermatov, singari olimlarning asarlari maydonga keldi.

Oʻzbek xalq shevalari rang-barang xususiyatlarni oʻzida ifoda etadi. Ularning xaritalardagi koʻrinishi til oʻrganuvchilar uchun tilshunoslik va dialektologik qonuniyatlarni tushuntirishda juda qoʻl keladi. Lingvistik xaritalarda koʻrsatilgan dialektal xususiyatlar va ularning tarqalishi tilshunoslarga ayrim til hodisalarining tarixiy taraqqiyoti, oʻzbek milliy tilining shakllanish jarayonlari, adabiy til takomili kabi talay masala-larni yanada chuqurroq va mukammalroq oʻrganish imkonini beradi.

Lingvistik hodisalarining muayyan kenglikda tarqalishi va tillararo (dialektlararo) munosabatlarni lingvistik geografiya metodlari asosida oʻrganuvchi, asosiy tamoyillari til xususiyatlarining hududiy boʻlinishini tavsiflash va izoglassalarni talqin qilish, dialektlar, tillar va areal jamoalar (til ittifoqlari) oʻrtasida oʻzaro taʼsir maydonlarini (areal-larini) aniqlash boʻlgan areal lingvistika sohasida ham bugungi oʻzbek tilshunosligida bajariladigan vazifalar talaygina.

Oʻzbek tilini areal nuqtai nazardan oʻrganishda A.Joʻraev, Q.Muham-madjonov singari olimlar samarali mehnat qildilar. Ayniqsa, bu sohada oʻzbek tilini areal oʻrganilishining nazariy asoslarini batafsil yoritib bergan professor A.B.Joʻraev xizmatlari alohida eʼtiborga loyiq.

Zahmatkash oʻzbek tilshunosi, ona tilimiz fidoyisi, til ilmi targʻi-botchisi Abdulhamid Nurmonov oʻzining “Oʻzbek dialektologiyasining shakl-lanishi va rivojlanishi” nomli maqolasida “oʻzbek mahalliy shevalarini oʻrganishda “Chigʻatoy gurunigi” olgʻa surgan gʻoya katta xizmat qildi. Bunga koʻra “tilimizning adabiyligi arabiyligida emas, oʻzidadir, shuni tirguzmak”, “tilimiz qoidalarini tatarcha yoxud usmonlicha emas, tilimizning oʻzidan olmoq” kerak edi. Shuning uchun “xalq ogʻzida yurgan soʻzlarni, xalq adabiyoti boʻlgʻon ertaklar, maqollar yigʻib tekshirmak lozim” degan qarorga keladi. Natijada jonli xalq tilining oʻziga xos xususiyatlarini oʻrganishga bel



bog‘lanadi” deb ta‘kidlagan edi. Olim o‘zbek shevashunosligi taraqqiyoti uchun munosib ulush qo‘shgan fan fidoyilari va ularning asarlari haqidagi fikrlari yakunida: “o‘zbek dialektologiyasining keng front bo‘ylab ravnaq topishi o‘zbek tilini lingvistik xaritalashtirish imkoniyatini yaatdi. Shuningdek, lingvogeografik va areal tadqiqotlar olib borishga qulay sharoit tug‘dirdi. A.Shermatovning lingvogeografiyaga, A.B.Jo‘raevning areal lingvistikaga doir tadqiqotlarining dunyoga kelishi o‘zbek til-shunosligining katta yutug‘i” ekanligini ko‘rsatib o‘tgan edi.

Darhaqiqat, A.B.Jo‘raevning samarali ilmiy izlanishlari o‘zbek areal lingvistikasi sohasida amalga oshirilgan yagona ish sifatida ahamiyatli ekanligini e‘tirof etish lozim.

Aslida, o‘zbek areal lingvistik tadqiqotlarining nazariy asoslari Mahmud Qoshg‘ariyning “Devoni lug‘ot-it turk”, Alisher Navoiyning “Muho- kamatul lug‘atayn” asarlari bilan birgalikda maydonga kelgan.

O‘zbek shevalarini areal lingvistik metodlari asosida o‘rganish professor A.K.Borovkovning Farg‘ona vodiysi shevalaridan materiallar to‘plashdan boshlangan. Lekin o‘sha vaqtlarda respublikada dialektologik ishlarni birlashtiruvchi yagona markazning yo‘qligi bu materiallarni ishlab chiqish va xaritalarga ko‘chirish imkonini bermadi. Oradan ma‘lum vaqt o‘tgandan keyin, o‘zbek shevalari xususiyatlarini xaritalashtirish va areallarini belgilash ishi yana kun tartibiga qo‘yildi.

E.D.Polivanov, G‘.O.Yunusov, I.K.Yudaxin, A.K.Borovkov, V.V.Reshetov, Sh.Shoabdurahmonov kabi tilshunoslar o‘zbek areal tilshunosligi sohasini ilmiy asarlari, asosli manba – materiallar bilan boyitib, uning rivoj-lanishiga, takomillashishiga munosib hissa qo‘shdilar.

O‘zbek dialektlari arealini xaritalashtirishda professor V.V.Reshetovning xizmatlarini alohida e‘tirof etish kerak. U Toshkent viloyatining Angren hududida dialektologik tadqiqotlar olib bordi va Ohangaron vohasidagi shevalarda uchraydigan fonetik, leksik va grammatik farqlarni xaritaga ko‘chirdi. O‘zbek dialektologiyasida



birinchi bo‘lib o‘zbek qurama shevalarning 49 ta lingvistik xaritasini tuzdi. Bu kartalar negadir hozirgacha nashr qilinmadi.

Kishilar o‘rtasida bevosita aloqa vazifasini bajaruvchi til tovush yoki tovushlar kompleksi orqali o‘z ifodasini topadi. O‘zbek tilshunosi M.M.Mirtojiyev to‘g‘ri ta’kidlagandek: “Ma’lum tovush yoki tovushlar kom-pleksida ma’no yoki maqsadning ifoda topishi lug‘aviy birlik, lug‘at, lek-sika hisoblanadi. Shu leksikaning ma’lum grammatik qonuniyatlar asosida kommunikatsiyaga kirishuvi nutq, ya’ni tildir. Bu o‘rinda tilning uch bos-qichdagi tarkibiy qismi haqida gap boradi: tilning material manbai – tovushlar; shu material manbaini o‘z vositasida tashishi – leksika, lug‘at; o‘sha leksikaning kishilar muloqatga kirishuvi uchun o‘zaro kommunikativ aloqada bo‘lish qonuniyati – grammatika... Tovush tilni namoyon etuvchi materialdir”. Shu boisdan ham tilning fonetik jabhasiga qiziqish va bu borada amalga oshirilgan ilmiy-nazariy hamda amaliy tadqiqotlar o‘zining uzoq tarixiga ega. Praga tilshunoslik to‘garagining “Tezis”larida tilning tovush jabha-siga xos tadqiqotlar xususida so‘z yuritilib, lingvistik tadqiqotlarda so‘zlovchining maqsadini ro‘yobga chiqaruvchi akustik timsollarni birinchi, asosiy o‘ringa qo‘yish zarurligi ta’kidlanadi.

Darhaqiqat, bildiriladigan har qanday fikrlarning ashyoviy qobig‘ini akustik birliklar tashkil etadi. Fikrning yaxlit ashyosi jumla (gap) hisoblansa, shu jumlaning ashyosini tovush va tovushlar yig‘indisidan iborat butunlik tashkil etadi. So‘z tarkibidagi tovush qobig‘i hududiy, hatto, individual shaxsiy farqlar bilan idrok etiladi. Bu hol ayrim hududiy tillarning o‘ziga xos jihatlarini ko‘rsatishga xizmat qiladi. “Tezis”larda: “barcha tillarning fonetik-fonologik tasviri lingvistikaning muhim muammosidir” kabi bildirilgan fikrlar o‘zbek shevashunosligi uchun ham taalluqli bo‘lib, shevalarimiz fonologik strukturasidagi hali qo‘l tegmagan jihatlarni yoritish kun tartibiga qo‘yilishi muqarrardir.

Har qanday fanning tadrijiy – evolyutsion tarzda rivojlanishi yangilik emas. Sharqda turkologiya, ayniqsa, dialektologiyaga XI asrdayoq Mahmud Qoshg‘ariy, keyinchalik,



Alisher Navoiy tomonidan tamal toshi qo'yilgan bo'lsa, hozirda ham biz uchun ularning ilmiy qarashlari o'zbek tilshunosligining mayog'i sifatida qo'llanma hisoblanadi.

Turkiy tillarning ilmiy o'rganilishi o'zbek tilshunosligi, xususan, o'zbek dialektologiyasi sohasining rivoj topishida muhim o'ringa ega. Bu borada professor N.A.Baskakov va boshqa ko'plab turkolog olimlarning ilmiy-nazariy kontseptsiyalari turkologiya va o'zbek shevashunosligi taraqqiyotida alohida ahamiyatga ega.

V.V.Reshetov o'zbek shevalari fonetikasi, transkripsiyasi, o'zbek milliy tilining dialektal asosi va shu kabi o'zbek shevashunosligining bir qator muhim masalalarini oydinlashtirdi. U Respublikamizning Toshkent, Marg'ilon, Namangan kabi bir necha yirik shaharlari shevalarini sinchi-kovlik bilan o'rgandi. Ilmiy izlanishlari natijasida hozirgi o'zbek adabiy tiliga asos bo'lgan Toshkent va Farg'ona va boshqa o'zbek shevalarning adabiy tilga bo'lgan munosabati, ularning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosladi. Olim faqat shahar shevalarini o'rganish bilan cheklanmay, qipchoq shevalarining o'ziga xos xususiyatlarini ham batafsil o'rgandi. U Toshkent viloyatidagi qurama shevalarining lingvistik xususiyatlari tadqiqi moboy-nida to'plangan materiallar asosida qurama genezisining ilmiy asosini aniqlashga muvaffaq bo'ldi va qurama shevalarining o'ziga xos xususiyat-larini, ayniqsa, fonetik sathini atroflicha tasnifladi.

Sh.Shoabdurahmonov, F.Abdullaev, YA.G'ulomov, X.Donyorov, A.Y.Aliev, Q.Muhammadjonov, Y.Ibrohimov kabi dialektolog olimlarimiz o'zbek shevalarining fonetikasi, leksikasi va grammatikasini o'rganish borasida muvaffaqiyatli ish olib bordilar.

Shu o'rinda aytish kerakki, o'zbek shevalari, ularning fonetikasini o'rganishda o'zbek dialektologiyasining o'z an'analari, o'ziga xos tamoyil va asoslari bor. O'zbek shevalari fonetikasining ilmiy asosda o'rganilishini E.D.Polivanov, G'.O.Yunusov, A.K.Borovkov, V.V.Reshetovlar boshlab bergan an'ana va tendentsiyalarni Sh.Shoabdurahmonov,



F.Abdullaev, X. Donyorov, S.Ibrohimov, A.Ishaev, A.Aliev, N.Rajabov, SH.Nosirov, S.Otamirzaeva, H.Uzoqov, S.Tulyakov va boshqa olimlar davom ettirdilar.

O'zbek dialektologiyasi sohasida shevalar fonetikasiga bag'ishlangan ilmiy tadqiqot ishlarining ko'lami ortib bordi. Jumladan, A. Ishaevning Mang'it shevasi fonetikasiga bag'ishlangan izlanishlarida Mang'it shevasining o'ziga xos xususiyatlari, fonema va tovushlari, tovush o'zgarish hodisalari va bo'g'inlari haqida batafsil ma'lumot berilgan.

Xulosa. O'zbek tili dialektal areali o'zbek tilining geografik jihatdan tarqalishi va uning hududiy farqlarini o'rganishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu areal tarkibiga kiruvchi shimoliy, janubiy va markaziy dialektlar o'zbek tilining boy va rang-barang til xususiyatlarini namoyon qiladi. Namangan viloyati shevalari esa bu dialektal areal ichida o'zining alohida fonetik, leksik va grammatik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ushbu shevalar nafaqat tilshunoslik nuqtai nazaridan, balki mintaqaning madaniy merosi va xalq og'zaki ijodi uchun ham katta qimmatga ega.

Namangan shevalarining o'rganilishi tilning hududiy xilma-xilligini chuqurroq anglashga, til va madaniyat o'rtasidagi bog'liqlikni tadqiq qilishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu shevalarni saqlab qolish va rivojlantirish O'zbek tili va madaniyatining boyligini saqlashda muhim omil hisoblanadi. Kelajakda Namangan va boshqa viloyatlar shevalariga oid kengroq ilmiy tadqiqotlar olib borilishi, tilshunoslik va etnografiya sohasida yangi yutuqlarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Махмудов Н. Тил. – Тошкент, 1989. – 40 б.
2. Баскаков Н.А. Ареалы и маргинальные зоны в развит тюркских языков // Народы и языки Сибири: ареальные исследования. – М., 1978.
3. Ширалиев М. М. Азэрбајчан диалектологијасыниң асаслари. – Баку, 1981.



4. Гаджиева Н.З. Проблемы тюрской ареальной лингвистики среднеазиатский ареал. – М.: Наука, 1975.
5. Севортян Э.В. Ассимиляция и диссимиляция согласных в южных тюрских языках, Исследования по сравнительной грамматике тюрских языков. I. Фонетика. – М., 1955.
6. Шоабдурахмонов Ш. Ўзбек адабий тили ва халқ шевалари. – Тошкент: Фан, 1962.
7. Шерматов А. Каршинский говор узбекского языка. Автореф. дис. ...канд. фил. наук. – Ташкент, 1960; Лингвистик география нима? – Тошкент, 1981.
8. Джураев А. Б. Теоретические основы ареального исследования узбекоязычного массива. – Ташкент: Фан, 1991.
9. Мухаммаджонов Қ. Ареальное исследование узбекских говоров южного Казагистана. Автореф. дисс. ...докт. фил. наук. – Ташкент, 1988; Жанубий Қозоғистондаги ўзбек шевалари. Тошкент: Фан, 1981.
10. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б. 425.
11. Нурмонов А. Танланган асарлар. – Тошкент: Akademnashr, 2-жилд, 2012. – Б.426.